

BAXSHILI EL BOTIR EL

Umid Norboyev Pardayevich

Respublika baxshichilik markazi bosh direktori

Respublika baxshichilik san'ati markazi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon diyorida baxshichilik markazining tashkil etilishi, markazning faoliyati, baxshichilik san'atining bugungi kundagi ravnaqi, baxshi atamasining ma'nosi, folklorshunosligimizda baxshilarning turli nomlar bilan nomlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Doston, folklor, do'mbira, xalq, surxon, an'ana

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar zaminda madaniy – ma'naviy merosimizni o'rganish, tiklash, yosh avlod ongiga singdirish, yoshlarni xalq og'zaki ijodiyotga bo'lgan havas va intilishlarni qullab-quvvatlash, ular uchun baxshichilik san'atini xalqimizning bebaho san'ati ekanliga yo'naltirish asosida yosh baxshilarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega bulmoqda. Shu asosda ustoz-shogirdlik an'alariga e'tibor bergan holda baxshichilik san'atini yanda yuksaltirish maqsadida baxshilar hayoti ijodini o'rganish, dostonlarni tiklash, zamon qahromonlarni qiyofasi asosida yangi dostonlarni yaratish, yosh baxshilar maktablarni tayanchda respublika va xalqaro miqyosda anjumanlar o'tkazishga alohida e'tibor qartilmoqda.

Surxon zaminida baxshichilikni rivojlantirish, tarixiy merosimizni qayta tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 17-19 yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Termiz shaxrida "Baxshichilik maktabi"ni ochish takliflari zaminida Surxon baxshichiligi yangi qiyofa topishiga sabab bo'ldi. Bu ishlar samarasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 1 noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ti festivalini o'tkazim to'g'risida" gi PQ-3990 sonli qarori va shu asosda Vazirlar mahkamasining 2018 yil 22 noyabrdagi 946 son qarorining qabul qilinishi tarixiy voqea bo'ldi.

«Baxshi» mo'g'ulcha so'z bo'lib, ustod, ma'rifatchi degan ma'noni anglatadi. O'zbeklar orasida baxshi yana bir qancha nomlar bilan ataladi. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida yuzboshi, sozanda, Tojikistonning o'zbek-laqaylari orasida soqi, Farg'ona vodiysida sanovchi, shuningdek, jirov, jirchi, oqin kabi nomlar bilan yuritiladi. Bunday xalq ijodkorlari boshqa turkiy xalqlar orasida ham mavjud bo'lib, qozoqlarda oqin va jirov, qirg'izlarda manaschi, mo'g'ullarda to'lchi, o'g'uzlarda uzan, deyiladi. Tojik folklorshunosligida halq eposi ijrochilari go'yanda, hofiz va shoir deyiladi. Biroq «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar ijrochisini dostonga

qiyosan go'ro'g'lisaro, deb ham atashadi. Yirik o'zbek baxshilarining nomiga «shoir» so'zini qo'shib ishlatish hollari mavjud¹.

Baxshilik san'ati markazi o'zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi².

Folklorshunoslikda baxshilarning turli nomlar bilan atalgani ham ma'lum. Xususan, yuzboshi, soqi, jirov, jirchi, oqin, xalfachilik shular jumlasidandir. Ba'zan usta, shoir so'zlari ham qo'llangan. Shuningdek, Xorazmda doston aytuvchi ayollar xalfa nomi bilan mashhur. Xalq dostonlarini kuylovchilari turli musiqiy asboblardan do'mbira, tor, dutor, g'ijjak, qo'biz, garmon, bulamon, qo'shnay, doira jo'rligida ba'zan yakka, ba'zan juft holda ijro etilgan.

Surxon vohasi hududi aholisining madaniy hayotida og'zaki ijod, ya'ni folklor muhim o'rin egallagan bo'lib, unda baxshichilik yo'nalishi o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. Baxshichilik janri ayniqsa, Dashti qipchoq o'zbek urug'lari, jumladan qo'ng'irotlar orasida keng tarqalgan. Surxondaryoda baxshichilik keng rivojlangan bo'lsada, lekin Sherobod dostonchilik maktabi o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan. Sherobod dostonchilik maktabi faoliyati folklorshunos olimlar tomonidan o'rganilib, nihoyatda yuqori baholangan. O'z vaqtida folklorshunos olimlar tomonidan sherobodlik baxshilardan 150 dan ortiq har xil dostonlar va xalq og'zaki ijodi namunalari yozib olingan. Shulardan 80 dan oshig'i O'zbekiston Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi Til va adabiyoti instituti folklor bo'limining H.Zarifov nomidagi folklor arxivida hamda A.Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanmoqda³. Sherobod baxshilari nafaqat Surxon vohasida, balki qo'shni Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Chiroqchi, Dexqonobod tumanlari, qardosh Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining uzoq ovul va qishloqlarida ham mashhur bo'lishgan. Sherobod baxshilari tomonidan do'mbira soziga qo'shib aytilgan «Gulixiromon», «Oyparcha», «Oychinor», «Oysuluv», «Malla savdogar», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li», «Yozi bilan Zebo», «Kelinoy», «Dastagul», «Nurali va Qori Ahmad», «Alpomish» dostonlari aholi tomonidan sevib tinglangan⁴.

Sovet mustabid tuzum mafkurasini yillarida milliy ma'anviyatimizning teran g'oyasi hisoblangan xalq ohzaki ijodini noyob durdonasi hisoblangan dostonchilik va baxshichilik ijodiga jiddiy salbiy ta'sir yetkazildi. Mashhur taniqli baxshilar taqib

¹ Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари / Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 7-китоб. - Т.: Фан, 1981. Б 12.

²Турсунов С, Парадаев Т, Турсунова Н, Муртазаев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. Тошкент.; 2015. "Tafakkur". Б 89.

³ Эргашев А. Шерободдostonчилик мактаби. -Т.: 1991. .10-23 бетлар.

⁴Эргашев А. Шерободдostonчилик мактаби. -Т.: 1991. .29 бетлар.

ositiga olindi. Yosh ijodkor baxshilar qurquv ostida o'z ijodlarini to'xtatib qo'yidilar. Qutbonpo'lat baxshi yosh umrining xazon etilishi, ikki tilda kuylagan Farmon shoirning o'n besh yil taqib ostida yurishi, Mardonqul Avliyoqul o'g'lining yuzboshi (amaldor) deb qamalishi, Tog'ay shoir Mahmanov oilasining o'n olti yil Sibirga surgun qilinishi, Xolyor Abdukarim o'g'lining otilishi baxshichilik maktablariga jiddiy zarba bo'ldi. Natijada ko'plab baxshi-shoirlar o'z ijodlarni to'xtatib, doston kuylashni yig'ishtirib qo'yidilar.

Xalq dostonlari baxshi shoirlar tomonidan shu kungacha ajdodlardan – avlodlarga va tag'in avlodlardan - avlodlarga o'tib ko'ylanib, ijod qilib kelinayotgan boy ma'naviy xazinadir. Istiqloq sharofati tufayli ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida xalq og'zaki ijodining tiklanishi va yanada keng tarzda rivojlanishi tufayli xalqimizning asriy an'analari bag'oyat darajada rivoj topdi, boyidi